


Farg'ona viloyatining TAShQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)

2019 yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 414,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 160,4 mln. AQSh dollarga (28,7 %ga o'sgan) va import hajmi 253,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 96,2 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 93,4`mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan

qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSh dollar)



2019 yil yanvar-aprel oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning aprel oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollar)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|--------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Xitoy | 115,6 | 41,2 | 74,4 | 25,7 |
| Rossiya | 73,5 | 29,4 | 44,2 | 18,3 |
| Qozog'iston | 47,4 | 4,7 | 42,7 | 2,9 |
| Turkiya | 39,8 | 23,8 | 16,1 | 14,8 |
| Qirg'iziston | 35,2 | 24,6 | 10,6 | 15,4 |
| Latviya | 10,4 | 0,4 | 10,0 | 0,2 |
| Germaniya | 9,9 | 0,3 | 9,7 | 0,2 |

(mln. AQSh dollar)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|---------------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Koreya Respublikasi | 10,8 | 2,0 | 8,8 | 1,3 |
| Tojikiston | 10,8 | 4,3 | 6,5 | 2,7 |
| Yaponiya | 6,5 | 0,1 | 6,3 | 0,1 |
| Litva | 4,3 | 0,2 | 4,1 | 0,1 |
| Polsha | 8,8 | 6,7 | 2,1 | 4,2 |
| Ukraina | 5,9 | 4,2 | 1,7 | 2,6 |
| Italiya | 1,8 | 0,2 | 1,6 | 0,1 |
| Eron | 1,9 | 0,5 | 1,4 | 0,3 |
| Belarus | 1,6 | 0,5 | 1,1 | 0,3 |
| Chekiya | 1,0 | 0,6 | 0,3 | 0,4 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,5 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 martaga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-aprel oylarida 1,2 % oshgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 57,5 %ga yetdi.


EKSPORT

2019 yil yanvar yanvar-aprel oylarida eksport hajmi 160,3 mln. AQSh dollarga (28,7 % ga o'sgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,2 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (28,2 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,5 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar


(0,6 %), qora va rangli metallar (0,01%), shuningdek, xizmatlar (1,9 %) va boshqalar (65,7%) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
(mln.AQSh dollar)

**2018 Yil
yanvar-aprel**



**2019 Yil
yanvar-aprel**




- █ paxta tolasi
- █ oziq-ovqat mahsulotlari
- █ kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- █ Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- █ qora va rangli metallar
- █ Xizmatlar
- █ Boshqalar

- █ Paxta tolasi
- █ Oziq-ovqat mahsulotlari
- █ Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- █ Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- █ Qora va rangli metallar
- █ Xizmatlar
- █ Boshqalar

Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga nisbatan, % |
| Eksport | 160,4 | 128,7 | 100,0 | 68,1 | 151,8 | 100,0 | 92,3 | 115,7 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 45,2 | 363,8 | 28,2 | 31,3 | 397,3 | 45,9 | 13,9 | 305,7 | 15,1 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 1,0 | 73,9 | 0,6 | 1,0 | 83,5 | 1,4 | 0,01 | 14,5 | 0,01 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 5,6 | 98,4 | 3,5 | 3,1 | 83,9 | 4,6 | 2,5 | 125,9 | 2,7 |
| Qora va rangli metallar | 0,02 | 113,3 | 0,01 | 0,02 | 98,2 | ,01 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Mashina va asbob - uskunalar | 0,2 | 53,5 | 0,1 | 0,2 | 47,6 | 0,2 | 0,01 | 548,8 | 0,01 |
| Xizmatlar | 3,0 | 162,7 | 1,8 | 2,2 | 149,8 | 3,2 | 0,8 | 211,6 | 0,9 |
| Boshqalar | 105,4 | 103,5 | 65,7 | 3,4 | 100,4 | 44,7 | 75,0 | 104,8 | 81,3 |

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlaring tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilgning yanvar-aprel oylariga nisbatan 128,7 % ga oshgan.


Xizmatlar eksporti hajmi 2,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,9 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar eksporti
 (oylar kesimida, mln. AQSh dollarri)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
 (yanvar-aprel)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 44,0 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

| Davlat nomi | Mln. AQSh doll. | | Ulushi, % | | O'rni | |
|---------------------|-----------------|---------|-----------|---------|---------|---------|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy | 31,4 | 41,2 | 25,2 | 25,7 | 1 | 1 |
| Rossiya | 29,0 | 29,4 | 23,2 | 18,3 | 2 | 2 |
| Qozog'iston | 5,9 | 4,7 | 4,8 | 2,9 | 6 | 7 |
| Turkiya | 16,3 | 23,8 | 13,1 | 14,8 | 3 | 4 |
| Qirg'iziston | 5,5 | 24,6 | 4,4 | 15,4 | 7 | 3 |
| Latviya | 0,4 | 0,4 | 0,3 | 0,2 | 22 | 21 |
| Germaniya | 0,7 | 0,3 | 0,5 | 0,2 | 16 | 23 |
| Koreya Respublikasi | 3,3 | 2,0 | 2,6 | 1,3 | 8 | 12 |
| Tojikiston | 1,3 | 4,3 | 1,0 | 2,7 | 11 | 8 |
| Yaponiya | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 32 | 27 |
| Litva | 0,5 | 0,2 | 0,4 | 0,1 | 19 | 26 |
| Polsha | 7,6 | 6,7 | 6,1 | 4,2 | 5 | 5 |
| Ukraina | 1,7 | 4,2 | 1,4 | 2,6 | 10 | 9 |
| Italiya | 0,3 | 0,2 | 0,2 | 0,1 | 27 | 24 |
| Eron | 1,1 | 0,5 | 0,9 | 0,3 | 12 | 19 |
| Belarus | 0,9 | 0,5 | 0,7 | 0,3 | 15 | 20 |
| Chehiya | 0,6 | 0,6 | 0,5 | 0,4 | 17 | 16 |

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi
(yanvar-aprel)**

ming. AQSh doll.)

| | Rossiya Respublikasi | | Qozoqiston Respublikasi | |
|---|----------------------|-------------|-------------------------|------------|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Jami eksport | 29,0 | 29,3 | 5,9 | 4,7 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 2,6 | 3,2 | 2,7 | 3,1 |
| Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar | 0,02 | 0,02 | 0,2 | 0,04 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | - | 1,0 | 1,5 | 0,5 |
| Qora va rangli metallar | - | - | 0,004 | 0,006 |
| Mashina va uskunalar | 0,3 | 0,07 | - | 0,03 |
| Xizmatlar | 1,4 | 2,1 | 0,008 | 0,01 |
| Boshqalar | 24,7 | 23,0 | 1,5 | 1,0 |

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-aprel oylarida jami 32,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 31,4 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 2,7 martaga ko`paygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-aprel oylarida 26,4 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 21,8 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 3,7 ming tonna meva va rezavorlar 6,5 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 28,3 mln.AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 martaga ko'paygan.).



Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

| Davlat nomi | 2018 yil yanvar-aprel | | | 2019 yil yanvar-aprel | | |
|--------------|-----------------------|--------------------|--------------|-----------------------|--------------------|--------------|
| | Ming. tonna | Ming. AQSh,doll | Ulushi, % | Ming. tonna | Ming. AQSh,doll | Ulushi, % |
| Qozoqiston | 6,0 | 2,3 | 20,4 | 6,6 | 2,9 | 25,0 |
| Rossiya | 4,8 | 2,4 | 20,7 | 6,8 | 2,9 | 25,2 |
| Qirg'iziston | 4,3 | 1,7 | 14,9 | 7,7 | 19,8 | 62,9 |
| Afg'oniston | 3,1 | 2,6 | 22,3 | 0,7 | 0,5 | 4,1 |
| Ukraina | 0,6 | 0,5 | 4,5 | 7,2 | 2,8 | 24,0 |
| Turkiya | 0,5 | 0,4 | 3,4 | 1,0 | 0,8 | 6,8 |

IMPORT

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 253,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 96,2 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (35,1%), energiya manbalari va neft maxsulotlari (11,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (7,7 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,6%), qora va rangli metall (12,8 %), hamda, boshqalar hisobiga to'g'ri keldi (20,2 %).

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)



Oziq-ovqat mahsulotlari
 Kimyo mahsulotlari va buyumlari
 Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
 Qora va rangli metallar


Mashina va asbob-uskunalar
 Xizmatlar
 Boshqalar

Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-----------------|--------------------------|----------------------------|-----------------|--------------------------|----------------------------|------------------|--------------------------|----------------------------|
| | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajimga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajimga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajimga nisbatan, % |
| Import | 253,8 | 96,2 | 100,0 | 107,1 | 72,7 | 100,0 | 146,4 | 125,6 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 19,5 | 1,6p | 7,7 | 10,9 | 2,7p | 13,3 | 5,3 | 80,4 | 3,6 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 29,5 | 135,7 | 11,6 | 6,7 | 129,4 | 6,3 | 22,7 | 137,7 | 15,5 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 29,7 | 30,6 | 11,7 | 29,6 | 30,5 | 27,7 | 0,1 | 87,5 | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 32,5 | 131,3 | 12,8 | 15,4 | 234,2 | 14,4 | 17,1 | 94,2 | 11,7 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 89,0 | 136,5 | 35,1 | 3,1 | 159,5 | 2,9 | 85,9 | 135,8 | 58,7 |
| Xizmatlar | 2,1 | 156,4 | 0,8 | 0,07 | 862,5 | 0,1 | 2,0 | 125,1 | 1,4 |
| Boshqalar | 51,2 | 122,2 | 20,1 | 37,9 | 121,2 | 35,4 | 13,0 | 125,1 | 8,9 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-aprel oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,8 % ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

| Davlat nomi | Mln. AQSh dollarri. | | Ulushi, % | | O'rni | |
|-------------|---------------------|---------|-----------|---------|---------|---------|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Rossiya | 107,3 | 44,1 | 40,6 | 17,4 | 1 | 2 |
| Xitoy | 76,3 | 74,4 | 28,9 | 29,3 | 2 | 1 |
| Qozog'iston | 16,8 | 42,6 | 6,4 | 16,8 | 3 | 3 |
| Latviya | 2,5 | 10,0 | 0,9 | 3,9 | 13 | 6 |


| | | | | | | |
|---------------------|------|------|-----|-----|----|----|
| Koreya | 6,3 | 8,8 | 2,5 | 3,4 | 6 | 8 |
| Germaniya | 3,7 | 9,6 | 1,4 | 3,8 | 9 | 7 |
| Turkiya | 5,6 | 16,0 | 2,1 | 6,3 | 7 | 4 |
| Litva | 3,0 | 4,1 | 1,1 | 1,6 | 11 | 11 |
| Tadjikistan | 2,8 | 6,4 | 1,0 | 2,5 | 12 | 9 |
| Estoniya | 0,2 | 1,0 | 0,1 | 0,4 | 24 | 20 |
| Qirgizsiton | 13,3 | 10,5 | 5,0 | 4,1 | 4 | 5 |
| Tayvan | 0,3 | 1,6 | 0,1 | 0,6 | 21 | 14 |
| Niderlandiya | 1,5 | 1,3 | 0,6 | 0,5 | 16 | 18 |
| Polsha | 0,3 | 2,1 | 0,1 | 0,8 | 22 | 12 |
| Hindiston | 5,3 | 1,4 | 2,0 | 0,5 | 8 | 16 |
| Ukraina | 0,1 | 1,7 | 0,1 | 0,6 | 26 | 13 |
| Belarus | 0,5 | 1,0 | 0,2 | 0,4 | 19 | 19 |
| Italiya | 1,9 | 1,5 | 0,7 | 0,6 | 15 | 15 |
| Yaponiya | 0,1 | 6,3 | 0,0 | 2,4 | 32 | 10 |
| Serbiya | - | 0,6 | - | 0,2 | - | 22 |

Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2019 yil yanvar-aprel

Xizmatlar importi hajmi 2,1 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 156,4 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.


2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(oyda, mln. AQSh dollar)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 253,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-aprel)**

2019 yil



2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizga 51 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 187,9 mln. AQSh dollariga teng.

Bu esa umumiy import hajmining 74,0 % ni tashkil qiladi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-87-18**